

KOREYS MADANIYATI VA MILLIY URF-ODATLARI**Obloqulova Fazoda Xabib qizi***Samarqand davlat chet tillari instituti Sharq tillari fakulteti**E-mail: obloqulovafazoda@gmail.com**9998994222507*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada koreys xalqining boy madaniy merosi, milliy urf-odatlari va an'alarining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari yoritilib berilgan. Unda koreys jamiyatida oilaviy qadriyatlar, kattalarga hurmat, milliy bayramlar, an'anaviy kiyimlar (hanbok), taomlar va marosimlarning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Konfutsiylik ta'limotining koreys madaniyatiga ko'rsatgan ta'siri hamda zamonaviy Koreyada milliy an'analar va mavjud diniy qarashlarning uyg'unligi masalalariga e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Koreya madaniyati, milliy urf-odatlar, hanbok, milliy taomlar, oilaviy qadriyatlar, milliy bayram va marosimlar, din*

Аннотация: *В данной статье рассматривается богатое культурное наследие корейского народа, этапы формирования и развития национальных обычаев и традиций. Анализируется роль семейных ценностей, уважения к старшим, национальных праздников, традиционной одежды (ханбок), еды и ритуалов в корейском обществе. Также рассматривается влияние конфуцианства на корейскую культуру и гармония национальных традиций и существующих религиозных взглядов в современной Корее.*

Ключевые слова: *корейская культура, национальные обычаи, ханбок, национальная еда, семейные ценности, национальные праздники и ритуалы, религия.*

Abstract: *This article examines the rich cultural heritage of the Korean people, the formation and development stages of national customs and traditions. It analyzes the role of family values, respect for elders, national holidays, traditional clothing (hanbok), food and rituals in Korean society. It also focuses on the influence of Confucianism on Korean culture and the harmony of national traditions and existing religious views in modern Korea.*

Keywords: *Korean culture, national customs, hanbok, national food, family values, national holidays and rituals, religion.*

Kirish:

Har bir davlat o'ziga xos milliyligi, milliy urf-odatlari hamda uzoq yillar mobayinida shakllanib kelgan madaniyatga ega hisoblanadi. Koreys madaniyati ham ming yillar

mobayinida shakllangan boy tarixiy va ma'naviy merosga ega bo'lib, u Sharq falsafasi, ayniqsa, Konfutsiylik ta'limoti asosida shakllangan. Konfutsiy ta'limoti ta'siri, oilaga hurmat, kattalarga ehtirom va jamoaviylik kabi qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Koreys xalqi o'z milliy merosini asrab-avaylab, uni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtira olganligi bilan ajralib turuvchi xalq hisoblanadi. Milliy kiyimlar, marosimlar, bayramlar, taomlar hamda kundalik hayotdagi milliy odob-axloq qoidalari koreys xalqining o'ziga xosligini yaqqol namoyon etadi. Ushbu maqolada Koreys madaniyati va milliy urf-odatlarining asosiy jihatlari, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati yoritib beriladi.

Koreyaning an'anaviy madaniyati Koreyaning 1945-yilda bo'linishidan oldingi, Koreyaning va janubiy Manjuriyaning umumiy madaniy va tarixiy merosini o'z ichiga oladi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, XX asrning o'rtalaridan boshlab Koreya hududi Shimoliy Koreya va Janubiy Koreyaga davlariga bo'linib ketadi. Va natijada bugungi kunda ham kuzatilishi mumkin bo'lgan bir qancha madaniy farqlar paydo bo'lgan. Bugungi kunga qadar Koreya xalqi o'ziga xos ko'plab qadriyatlarini saqlab qolgan, garchi ular zamonaviy g'arb ta'siri, asosan, Amerika urf-odatlarini aralashuvi ostida yo'q bo'lib ketayotgandek ko'rinsa ham, ayrim koreys oilalari hali-hanuz milliy urf-odatlarga xos tarzda hayot kechiradilar.

Janubiy Koreya madaniyatiga to'xtaladigan bo'lsak, Janubiy Koreyaning zamonaviy madaniyati Koreyaning ilk ko'chmanchi qabilalari orasida keng tarqalgan an'anaviy madaniyatidan kelib chiqqan. Janubiy Koreyaning, ayniqsa, Seulning sanoatlashtirilishi, urbanizatsiyalashishi va g'arblashuvi koreys xalqining hayotida tub o'zgarishlar paydo qildi. Iqtisodiyot va turmush tarzining o'zgarishi aholining yirik shaharlarda to'planishiga olib keldi. Shimoliy Koreya madaniyatining o'ziga xosligi shundan iboratki, shimolliklar o'tmishdagi eng yaxshi deb bilgan qadriyatlarni o'zlarida olib qolishgan va kapitalistik elementlardan to'liq vos kechishgan. Adabiyot, san'at, musiqa va raqs kabi san'atdagi ommabop, xalq uslublari va qadriyatlari koreys xalqining chinakam noyob ruhini ifodalovchi vostitalar sifatida qadrlanadi.

Kulolchilik san'ati: Goro sulolasi davrida yashil nefritdan yasalgan seladon buyumlari mashhurlikka erishadi. XII asrda turli xil ranglarda yanada murakkab bezaklarni yaratishga imkon beruvchi murakkab inlaying usullari ixtiro qilindi. "Koreya san'ati" asrida sopol buyumlarini ishlab chiqarish eng yuqori darajaga yetadi. Chorak asrda bir vaqtning o'zida bir nechta yangi uslublarni paydo bo'ldi, ulardan biri bo'lmish keramika buyumlarini ishlab chiqarish sanoatini – koreys ixtirosi deb atash mumkin. Shuningdek yana bir san'at durdonasi bo'lmish oq chinni XV asrda juda tez mashhur bo'ldi va ko'p o'tmay seladon idishlarni ortda qoldirdi. Oq chinnilar odatda bo'yalgan yoki mis bilan bezatilgan ko'rinishda yasatilgan bo'ladi. XVI asrda Imjin urushlari paytida koreys kulollari

Yaponiyaga olib kelindi va u yerda yapon kulolchligiga katta ta'sir ko'rsatdilar. Bugungi kunda ko'plab yapon kulolchilik oilalari o'zlarining san'ati hamda ajdodlarini Koreya yarimorolini bosib olishga urinishlar paytida qo'lga olingan koreys kulollariga borib taqalishini aytadilar. Choson sulolasi davrida ko'k-oq chinnilar mashhurlikka erishdi. Mazkur chinnilar oq chinnini och ko'k rangga bo'yash orqali tayyorlanadi.

Raq va jang san'ati: Koreyada saroy raqsi xalq raqsi o'rtasida farq bor. Keng tarqalgan saroy raqsi raqslari – ziyofatlarda ijro etiladigan jeongjaemu (정재무) va koreyslarning Konfutsiy marosimlarida ijro etiladigan ilmu (일무) kabilardir. Shuningdek, mahalliy raqslarga jeongjaemu misol bo'la oladi. Ilmu xalq raqsi munmu (문무) va harbiy raqsga (무무 mumu), shuningdek, koreyslarning milliy raqslari sirasiga kiradi. Koreyaning ko'plab mintaqalarida niqob dramalari va niqobli raqslar ijro etiladi. An'anaviy kiyim – genja bo'lib, bu ayollar bayramlarda kiyadigan maxsus kiyimdir. Raqslarni ijro etish vaqtida ayollar shu libosni kiyib oladilar. Mazkur libosning yoqa qismida bir nechta pushti rangdagi naqshlar tasvirlangan bo'ladi. To'y raqslarining an'anaviy xoreografiyasi ko'plab zamonaviy spektakllarda o'z aksini topgan. Mamlakatdagi kuchli raqs an'anasi bugungi kungacha davom etmoqda, so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida ko'plab raqs guruhlari tashkil topgan.

Koreya jang san'atining mashhur turlariga taekkyon, taekvondo, hapkido kumdo kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Shulardan taekkyon, an'anaviy jang san'ati, klassik koreys raqsida asosiy markaziy o'rinni egallaydi. Taekkyon yaxlit harakatning to'liq tizimi bo'lib, Koreyaning niqob, raqs va boshqa an'anaviy san'at turlariga moslashgan asosiy taxnikasini o'zida namoyon etadi. Taekvondo, koreys jang san'ati ham 1940-yillarda Koreyada rivojlangan. Taekvondo bugungi kunda dunyoda eng keng tarqalgan koreys jang san'ati bo'lib, tezkor zarbalar, oyoq texnikasi va o'zini himoya qilish usullariga asoslangan. Hapkido esa raqib kuchidan oqilona foydalanish, bo'g'ish va uloqtirish usullari bilan ajralib turadi.

Tasviriv san'at: Koreya yarimorolida topilgan eng qadimgi rasmlar tarixiy davrlarning petrogliflaridir. Buddizmning Hindistondan Xitoy orqali kirib kelishi bilan tasviriy san'atning turli usullari joriy etildi. Ushbu texnikalar tezda an'anaviy tasviriy san'atga moslashib, ommalashib ketdi. Ammo, mazkur usullar mahalliy texnikalarni ham o'zida saqlab qoldi. Ular orasida Goguryeo qabrining devoriy suratlari ham bor edi. Ko'pgina qabrlar ichidagi bu devor rasmlari qadimgi Goguryeo xalqining marosimlari, urushlari, me'morchiligi va kundalik hayoti haqida bebaho tushunchalar beruvchi qadimiy artefaklar hisoblanadi. Tabiiy landshaftlar, gular va qushlar kabi mavzular Koreyada mashhur bo'lgan va o'z o'rnida naturalizmga moyillik belgilari yaqqol sezilib turgan. XVIII asrda xalq texnikasi, xususan, xattotlik va muhr o'ymakorligida ilg'or

o‘zgarishlar yuz bergan. Choson sulolasi davrida koreys rangtasvir san‘atining chaekgeori (kitoblar rasmlari) va munjado (harflar rasmlari) kabi yangi janrlari rivojlanib, koreys madaniyatida kitobga bo‘lgan ishtiyoqni va o‘rganishni yanada keng miqiyosda rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, Hanning “Temir zavodidagi tanaffus vaqti” surati va Jeong Sonning “Kumgang tog‘idagi Chonnyo cho‘qqisi” tasviri Koreyadagi mashhur san‘at namunalari biri hisoblanadi.

Musiqasi: Xalq musiqasi va saroy musiqasi o‘rtasida janrlar farqi mavjud. Koreys xalq musiqasi xilma-xil va murakkab, biroq xalq musiqasining barcha shakllari ritmlar to‘plamini (koreyscha 장단, Jangdan deb ataladi) va erkin belgilangan melodik rejimlar to‘plamini o‘zida namoyon etadi. Koreys xalq musiqasi — bu bir xonanda va bir barabanchi tomonidan ijro etiladigan Pansori (판소리) deb nomlanuvchi qo‘shiqdir. Ba‘zan raqqosalar va baxshilar ham bo‘lishi mumkin. Ular YuNESKOning „Dunyo xotirasi“ kitobida nomoddiy madaniy meroslar qatoriga kiritilgan, shuningdek, baraban chalib, raqsga tushiladigan va qo‘shiq kuylash orqali ijro etiladigan qo‘shiq turi Pungmul (풍물) ham shu ro‘yxatdan joy olgan. Samul Nori — Pungmul va Sanjo (산조) asosida yaratilgan koreys an‘anaviy musiqasi hisoblanadi. U tezkor templarda pauzasiz ijro etiladi. Yana bir musiqasi turi Nongak (농악) esa „dehqon musiqasi“ degan ma‘noni anglatadi. Koreys saroy musiqasining kuylanishini 1392-yilda Choson sulolasi davrida kuzatish mumkin. Koreys saroy musiqalariga A-ak, Dang-ak va Hyang-ak lar kiradi. Koreys qadimiy musiqalari hali ham ko‘p ijro etiladi va kuylanadi.

Hayot tarzi: Koreyslarning an‘anaviy uylari Hanok deb ataladi. Uyni iloji boricha ko‘proq quyosh nuri olish uchun tepalikka va janubga qaragan holda qurish kerak. Ushbu yo‘nalish orqali uy qurish hali ham zamonaviy Koreyada qo‘llanilib kelinmoqda. An‘anaviy koreys uylari ichki hovli (안채, ancha) va tashqi hovlidan (사랑채, sarangchae) iborat bo‘ladi. Shaxsiy tartib ko‘p jihatdan mintaqaga va oilaning yashash tarziga bog‘liq. Aristokratlar ziyofatlar uchun tashqi hovlidan foydalangan bo‘lsa, kambag‘al odamlar sarangchada qoramol boqishgan. Oila qanchalik boy bo‘lsa, uy shunchalik katta bo‘ladi. Biroq, qirolidan tashqari har qanday oilaga 99 kandan (kan — an‘anaviy uylarda ishlatiladigan ikkita ustun orasidagi masofa) ortiq yashash joyiga ega bo‘lish taqiqlangan. Ichki hovli odatda yashash xonasi, oshxona va yog‘och polli markaziy zaldan iborat bo‘lgan. Ichki hovliga bundanda ko‘proq xonalar biriktirilishi mumkin. Kambag‘al dehqonlarning tashqi hovlilari bo‘lmagan. Polni isitish (온돌, ondol) Koreyada qadimgi davrlardan beri qo‘llangan uslublardan biridir. Asosiy qurilish materiallari — yog‘och, loy, kafel, tosh va somon hisoblanadi. Yog‘och va loy o‘tmishda eng keng tarqalgan qurilish ashyosi bo‘lgani sababli, hozirgi kungacha ko‘p eski binolar saqlanib qolmagan.

Milliy liboslar: Qadim zamonlardan beri kiyib kelinadigan an'anaviy libos turi. Hanbok ko'ylak (jeogori) va yupka (chima) qismlaridan iborat. Hanbokning kelib chiqishi tarixi Koreya yarimorolidagi Uch Qirollik davriga borib taqaladi. XXI asrgacha jeogori, shim va chima kabi asosiy hanbok qismlari tuzilishi o'zgarmagan, lekin vaqt o'tishi bilan libosning uzunligi, kengligi va shakli avvalgi o'lchamlaridan biroz boshqacharoq tarzda tikila boshlagan. Ijtimoiy maqomga ko'ra, koreyslar turlicha kiyinishgan, bu kiyimni ijtimoiy darajaning muhim belgisiga aylantirgan. Ta'sirchan, lekin ba'zan noqulay liboslar hukmron sinf va qirol oilasi vakillari tomonidan kiyilgan. Bu yuqori tabaqalar oddiy odamlardan ajralib turish uchun zargarlik buyumlaridan ham foydalanganlar. Ayollar uchun an'anaviy zargarlik buyumlari ma'lum tabiat elementlari shaklidagi marjon ko'rinishida yasalgan. Zargarlik buyumlari qimmatbaho toshlardan tayyorlangan va ipak do'ppi tutashtirilgan. Shuningdek, Oddiy odamlar ko'pincha bo'yalmagan oddiy kiyimlar bilan cheklangan. Ushbu kundalik kiyim Choson davrida nisbatan deyarli o'zgarishlarga uchramadi. Asosiy kundalik kiyim avvalgidek saqlanib qoldi, lekin rasmiy va tantanali marosim liboslaridagi naqshlar sulolaning belgilari bilan boyitildi. Qishda odamlar paxtadan tikilgan ko'ylaklar kiyishgan. Mo'ynali kiyimlar ham keng tarqalgan o'z davrida urfga kirgan. Oddiy odamlar odatda toza oq bo'yalmagan materiallarni kiyishganligi sababli, ularni ba'zan oq libosli odamlar deb ham atashgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, Hanboklar maqsadlariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: kundalik kiyim, tantanali kiyim va maxsus kiyim. Tantanalil liboslar rasmiy tadbirlarda, jumladan, bolaning birinchi tug'ilgan kuni, to'y yoki dafn marosimida kiyiladi. Shamanlar, amaldorlar uchun maxsus liboslar tikilgan bo'lib, odatda oddiy xalq vakillari bunday hanboklarni kiymaydilar. Tarixiy manbalarga ko'ra, hanbok 14-asrda paydo bo'lgan to'y libosi hisoblanadi. Bu yuqori qismi alohida bo'lgan, pastki yubka qismi yergacha tushadigan, koreys milliy libosi edi. Hanbokdan kundalik kiyim sifatida foydalanish so'nggi bir necha o'n yilliklarda sezilarli darajada kamaygan. Bugungi kunda hanbok hali ham rasmiy tadbirlarda kiyiladi. Biroq, kiyimning kundalik foydalanilishi yo'qolgan. Lekin, ayrim hududlarda yashovchi keksalar hali ham hanbok kiyib yurishadi, shuningdek, Choson sulolasidan qolgan aristokratik oilalarning faol mulkdorlarini ham hanbok kiygan holda uchratish mumkin. Ba'zi yoshlar orasida an'anaviy libosga zamonaviy o'zgarishlar berilishi va shu orqali zamonaviy hanbokning ommalashuviga sabab bo'lish mumkin.

Koreys milliy oshxonasi: Sharqiy xalqlar orasida o'ziga xosligi, rang-barangligi va sog'lomligi bilan ajralib turadigan milliy taomlar tizimidir. U ming yillik tarixga ega bo'lib, Koreya yarimorolining tabiiy sharoiti, iqlimi va madaniy qadriyatlari asosida shakllangan. Koreys taomlari asosan guruch, sabzavotlar, dengiz mahsulotlari va go'shtdan tayyorlanadi hamda o'ziga xos ziravor va souslar bilan boyitiladi. Koreys oshxonasining eng mashhur

jihatlardan biri — achchiq va nordon ta‘m uyg‘unligidir. Ayniqsa, fermentatsiya usuli keng qo‘llaniladi. Masalan, Kimchi — karam va ziravorlardan tayyorlanadigan milliy taom bo‘lib, deyarli har bir ovqat bilan birga tortiladi. Shuningdek, Bibimbap (sabzavot va go‘sht aralashtirilgan guruch), Bulgogi (marinadlangan qovurilgan go‘sht) kabi taomlar ham dunyoga mashhurdir. Koreys oshxonasi nafaqat mazali, balki sog‘lomligi bilan ham e‘tiborga loyiq. Sabzavotlarning ko‘pligi, yog‘ning kam ishlatilishi va tabiiy mahsulotlarga urg‘u berilishi inson salomatligi uchun foydalidir. Shu sababli koreys taomlari bugungi kunda butun dunyoda keng tarqalib, ko‘plab insonlarning sevimli oshxonasiga aylangan.

Xulq atvor va salomlashuv qoidalar: Koreyslar salomlashish vaminnatdorchilikka katta ahamiyat berishadi. Ular har doim yengil ta‘zim bilan talaffuz qilishadi. Koreyslar his-tuyg‘ularning haddan tashqari namoyon bo‘lishini yoqtirmaydilar va odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri jismoniy aloqani xushmuomalalik yoki qo‘l siqish bilan cheklaydilar. Koreyadagi chet ellikl qo‘l ushlab yurgan qizlarni ko‘rib hayron qolishadi. An‘anaga ko‘ra, koreyslar polda o‘tirishadi, ovqatlanishadi va uxlashadi. Shuning uchun, koreyslarning uyiga kirayotganda, har doim oyoq kiyimingizni yechishingiz kerak. Koreyada oqsoqollar huzurida yalang oyoq yurish odobsizlik hisoblanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Koreya madaniyati va milliy urf-odatlar asrlar davomida shakllanib, xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ma‘naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan boy merosdir. An‘anaviy kiyimlar, milliy taomlar, bayramlar va marosimlar koreys xalqining o‘ziga xosligini namoyon etadi. Jumladan, Hanbok milliy kiyimi nafisligi va ramziy ma‘nosi bilan ajralib tursa, Chuseok kabi bayramlar oila va ajdodlarga hurmat tuyg‘usini mustahkamlaydi. Shuningdek, kattalarga hurmat, jamoaviylik va intizom kabi qadriyatlar koreys jamiyatining muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Zamonaviy taraqqiyotga qaramay, koreys xalqi o‘z an‘analarini asrab-avaylab, ularni bugungi avlodga yetkazib kelmoqda. Shu bois Koreya madaniyati nafaqat milliy meros, balki jahon madaniyatining ham ajralmas va qiziqarli qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Korean Culture and Information Service. Guide to Korean Culture. Seoul, 2018.
2. The Academy of Korean Studies. Understanding Korea Series. Seongnam, 2015.
3. Korea Tourism Organization. Korean Culture and Traditions. Seoul, 2020.
4. Korea Old and New: A History / Carter J. Eckert va boshqalar. Harvard University Press, 1990.
5. UNESCO rasmiy sayti — Koreyaning nomoddiy madaniy merosi bo‘yicha ma‘lumotlar.

6. Wikipedia. "Culture of Korea" maqolasi.
7. Google qidiruv tizimi orqali olingan ma'lumotlari.
8. Furkatovna, B. I. (2021). DISCURSIVE-PRAGMATIC FEATURES OF
9. KOREAN AND UZBEK ARTICLES ON THE CONCEPT OF "MAN" 사람.
10. International Journal of Management, 12(2).
11. Баёнханова, И. Ф. (2021). KOREYS TILIDA SOMATIK
12. FRAZEOLOGIZMLARNING IFODA MA'NOSIGA KO'RA TURLARI.
13. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
14. Shuhratova, V., & Amanullayeva, K. (2021). KAZUO ISHIGURONING"